# Хушхабар: Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ҳазратларининг нурли ҳаёт йўллари энди мактаб дарсликларида




13:42 / 06.09.2022    1616

Фазилатли шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ҳазратларининг ҳаёт йўлларига, Ислом умматининг манфаати йўлида қилган хайрли ишларига холис назар ташлайдиган бўлсак, битта олимнинг мусулмонлар учун қилган хизмати ниҳоятда салмоқли бўлганини сезиш унча қийин эмас. Бугун у кишидан кейин ҳеч иккиланмай айтиш мумкинки, шайх ҳазратлари қисқагина фаолиятлари давомида унча-мунча жамоалар қилишга улгурмайдиган катта илмий ишларни, тарғиб ва таълим, насиҳат, ваъз-иршодларни амалга ошириб кетдилар. Бутун ҳаётларини мусулмонларга Аллоҳни танитиш, Унинг дини асосларини ўргатиш, миллатни эътиқодий жаҳолатдан қутқариб, илму ирфон бўстонларида сайр қилдириш ишига бағишладилар. У кишининг китоблари кирмаган, ваъз-насиҳатлари янграмаган бирорта ўзбек хонадони қолмади, ҳисоб. Ҳазратнинг ўзбек халқига омонат қилиб қолдириб кетган китоблари, асарлари Аллоҳнинг фазли билан ёш авлодга ҳам етиб борди.

Бугун шайх ҳазратларининг қаламига мансуб «Ибратли ҳаёт йўллари», «Умрини илмга бағишлаган зот» «Китобга ошноликнинг мукофоти» каби мавзуларда жамланган маълумотлар, алҳамдулиллаҳ, мактаб дарслигига ҳам киритилганини кўриб,  бағоят хурсанд бўласан киши.

Имом Суфён ибн Уяйна раҳматуллоҳи алайҳ: «Солиҳлар зикр қилинган жойга раҳмат ёғилади», деганлар. Чунки солиҳларнинг ҳаёти, фазилати, қилган солиҳ амаллари зикр қилинса, уларга ўхшашга рағбат ортади ва хайрли ишларга тарғиб бўлади. Инсонда яхшиликка интилишга муҳаббат пайдо бўлади.

Фазилатли шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ҳазратларининг ҳаёт йўллари, шоядки, юртимиз мусулмонлари, ёш авлод учун ибрат, ўрнак манбаи бўлиб хизмат қилса!

Аллоҳ таоло бу ишга сабабчи бўлганларга икки дунё саодатини берсин, мансаб-мартабаларини кўтарсин, азиз қилсин!


ISLOM.UZ

Mulohaza uchun

ILMGA UMRINI BAG'ISHLAGAN ZOT

Islom ilmlari bilimdoni sifatida tanilgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1952-yilning 15-aprelida Andijon viloyatida tavallud topgan. Maktabni a'lo baholarga tamomlagan. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Buxorodagi «Mir Arab» madrasasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, shuningdek, Sharq mamlakatlaridagi yirik islom universitetlarida tahsil olgan. U doimo kitob mutolaa qilgan. Butun umrini yangi manbalarni izlash, ularni o'rganish va asarlar yozish bilan o'tkazgan. Olim Islom dini asoslari, tafsir, hadis, aqida, fiqh, tasavvuf va qator ilmlarga oid ko'plab asarlar yozgan. Olimning ilmiy merosida olti jildlik «Tafsiri Hilol» asari alohida o'rin egallaydi, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf O'zbekistonning birinchi muftiysi bo'lgan, o'z asarlari bilan yurtimiz va xorijiy davlatlarda yirik islomshunos olim sifatida tanilgan.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 2015-yilning 10-mart kuni Toshkent shahrida vafot etgan. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Toshkent shahrida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomidagi muhtasham majmua bunyod etildi.

*Qaysi xususiyatlar Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufga yetuk olim bo'lishiga xizmat qildi?*

43


1. Sizni o'ylantirayotgan muammo y... qilish algoritmini tuzing.
2. Muammoni rasmda tasvirlang. So'ng uni so'zda...
3. Muammo qarshisida o'zingizni qanday his qilyapsiz? ...
ifodalang.
4. Sizga bu muammoni hal qilish nimaga kerak? Fikringizni bayon qiling.
5. Muammo hal bo'lsa, qanday holatga tushasiz?
6. Muammoga yechim topishning bir nechta yo'llarini o'ylang. O'zingizni bu ishlarni qilayotgandek tasavvur qiling. Qaysi bir yechim ma'qul bo'lsa, shuning tasvirini chizing.
7. Yechim sifatida nega aynan shu yo'lni tanlaganingizni so'zda bayon qiling.
Mulohaza uchun
ILMGA UMRINI BAG'ISHLAGAN ZOT
Islom ilmlari bilimdoni sifatida tanilgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1952-yilning 15-aprelida Andijon viloyatida tavallud topgan. Maktabni a'lo baholarga tamomlagan. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Buxorodagi «Mir Arab» madrasasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, shuningdek, Sharq mamlakatlaridagi yirik islom universitetlarida tahsil olgan. U doimo kitob mutolaa qilgan. Butun umrini yangi manbalarni izlash, ularni o'rganish va asarlar yozish bilan o'tkazgan. Olim Islom dini asoslari, tafsir, hadis, aqida, fiqh, tasavvuf va qator ilmlarga oid ko'plab asarlar yozgan. Olimning ilmiy merosida olti jildlik «Tafsiri Hilol» asari alohida o'rin egallaydi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf O'zbekistonning birinchi muftiysi bo'lgan, o'z asarlari bilan yurtimiz va xorijiy davlatlarda yirik islomshunos olim sifatida tanilgan.
Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 2015-yilning 10-mart kuni Toshkent shahrida vafot etgan. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Toshkent shahrida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomidagi muhtasham majmua bunyod etildi.
Qaysi xususiyatlar Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufga yetuk olim bo'lishiga xizmat qildi?
43
Ma'naviyat xazinasidan
Insonning kiyinishi uning ichki ma'naviy dunyosining sirtda aks etishidir. Qaysi insonda uyat, hayo, or-nomus kabi tushunchalar bo'lsa, o'sha inson o'z obro'sini saqlaydigan, boshqalarning nafratini uyg'atmaydigan holatda kiyinadi.
Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, "Ijtimoiy odoblar" kitobidan
ISLOM.UZ


ISLOM.UZ


ISLOM.UZ
Ma'naviyat xazinasidan
Insonning kiyinishi uning ichki ma'naviy dunyo-
sining sirtda aks etishidir. Qaysi insonda uyat, hayo,
or-nomus kabi tushunchalar bo'lsa, o'sha inson
o'z obro'sini saqlaydigan, boshqalarning nafratini
qo'zg'atmaydigan holatda kiyinadi.
Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf
"Ijtimoiy odoblar" kitobidan
88